

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SAMANDAROV ZUXRIDDIN RAUP O'G'LI

**VALYUTA KURSINI BOZOR MEXANIZMLARI ASOSIDA
SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Economical Science**

Samandarov Zuxriddin Raup o‘g‘li

Valyuta kursini bozor mexanizmlari asosida shakllanishining nazariy asoslarini
takomillashtirish 3

Самандаров Зухриддин Рауп угли

Совершенствование теоретических основ формирования валютного курса
на основе рыночных механизмов 29

Samandarov Zukhriddin Raup ugli

Improvement of the theoretical foundations of exchange rate formation based
on market mechanisms 57

E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 61

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SAMANDAROV ZUXRIDDIN RAUP O'G'LI

**VALYUTA KURSINI BOZOR MEXANIZMLARI ASOSIDA
SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt4865 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lif tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nabihev Elshod Ganiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Obilov Mirkomil Rashidovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Xalqaro Nordik universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.1.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "28 " 08 soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49, faks: (99871) 232-69-92, e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14427 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49, faks: (99871) 232-69-92, e-mail: tdiu@tdiu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "12 " 08 kuni tarqatildi.

(2025-yil "12 " 08 dagi 85 raqamli reyestr bayonnomasi).




S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor


B.E. Mamaraximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor


U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon iqtisodiyoti sharoitida valyuta kursining bozor mexanizmlari asosida erkin shakllanishi xalqaro moliyaviy munosabatlarning samaradorligi, tashqi iqtisodiy muvozanatning barqarorligi va global kapital oqimlarining ratsional taqsimotini ta'minlovchi strategik makroiqtisodiy instrument sifatida e'tirof etiladi. Valyuta bozorida talab va taklif nisbatining ta'sirida shakllanadigan dinamik kurs mexanizmi milliy iqtisodiyotning tashqi raqobatbardoshligini real aks ettirish, inflyatsion tartibni institutsionallashtirish hamda monetar siyosatning samaradorligini oshirishda kompleks hal qiluvchi omil sifatida xizmat qiladi. Bunday yondashuv global moliya arxitekturasida pul-kredit munosabatlarini optimallashtirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim me'yoriy-huquqiy va konyunkturaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, "2024-yilda rivojlanayotgan davlatlarda valyuta kursining o'rtacha yillik o'zgaruvchanlik darajasi 15-20 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, ayrim mamlakatlarda bu ko'rsatkich 30 foizdan oshgan"¹. Shu sababli, valyuta kursini bozor mexanizmlari asosida shakllantirish masalasining ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganilishi va milliy sharoitlarga mos ravishda takomillashtirilishi zamonaviy iqtisodiy islohotlarning ajralmas qismiga aylangan.

Jahon ilm-fanida olib borilayotgan tadqiqotlar valyuta kurslarining shakllanishi va ularning bozor mexanizmlari bilan bog'liq murakkab jarayonlarni chuqur o'rganishga qaratilgan. Bugungi kunda, valyuta kursi shakllanishi, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy siyosatni samarali yuritish uchun muhim omil sifatida ko'riladi. Valyuta kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanishi, ayniqsa global integratsiya jarayonida va moliyaviy inqirozlar paytida o'zining nazariy ahamiyatini oshirmoqda. Bu tadqiqotlar nafaqat rivojlangan mamlakatlar, balki rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va valyuta kursining noaniqligini minimallashtirishda zaruriyatga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, mavzu jahon iqtisodiyotining hozirgi sharoitlariga javob beruvchi nazariy asoslarni takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar uchun dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekistonning ochiq iqtisodiy tizimga o'tish jarayonida valyuta kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanishi inflyatsiyani nazorat qilish, import va eksportni muvozanatlashtirish hamda kapital oqimlarini samarali boshqarish uchun muhim ahamiyatga ega. Mamlakat valyuta kursining barqarorligi iqtisodiy o'sish, investitsiyalar va xalqaro savdo uchun zarur bo'lgan asosiy shartlardan biridir. So'ngi yillarda O'zbekistonning valyuta kursi bozorining erkinlashuvi va liberallashuvi, mamlakatning global bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga yordam berib, iqtisodiy integratsiyasini kuchaytiradi. Shunday qilib, mazkur mavzu O'zbekiston iqtisodiyoti uchun valyuta siyosatini takomillashtirish va bozor mexanizmlarini optimallashtirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

¹ Xalqaro valyuta fondi (XVF)ning "Global Financial Stability Report" hisoboti. Tobias Adrian. 2024-yil oktyabr (<https://www.imf.org/en/Publications/GFSR/Issues/2024/10/22/global-financial-stability-report-october-2024>).

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldag'i PF-37-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 26-martdag'i PF-5975-sonli "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 18-noyabrdagi PF-5877-sonli "Inflatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi, 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177-sonli "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3272-sonli "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va mazkur sohaga taalluqli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rify rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'r ganilganlik darajasi. Valyuta kursining shakllanishi va unga ta'sir etuvchi omillar va ularning turli mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri masalasi doimo xorijiy olimlar tadqiqotlarining diqqat markazida bo'lgan. Shu jumladan, A. Smit, D. Rikardo, G. Kassel, J.M. Keyns, R. Mundell, M. Friedman, P. Krugman, R. Dornbusch, B. Eichengreen, K. Rogoff, O. Jeanne, P.R. Masson, J. Tirole, J. Bhagwati, J. Williamson, E. Fama, F. Hayek, Ch. Wyplosz, R. Barro, M. Mussa, O. Blanchard, J. Frankel, L. Serven singari xorijlik olimlar² mazkur sohada ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida bu borada I.I. Volkov, A. Kabekin, Vladimir Mau, S. Glazyev, V. Tikhomirov, A.L. Kudrin, F. Khabibullina, A. Musinov, S. Ulatov, A. Klepach, T. Zaslavskaya, V. Polterovich, K. Gennadiy kabi olimlar³ ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

²John Maynard Keynes. 1919. "The Economic Consequences of the Peace" 150; Robert Mundell. 1961. "The International Monetary System" 320; Milton Friedman. 1953."The Case for Flexible Exchange Rates" 200; Paul Krugman. 1999. "The Role of Exchange Rates in Economic Development" 290; Rudi Dornbusch. 2001. "Globalizing Capital: A History of the International Monetary System" 440; Kenneth Rogoff. 2002. "Exchange Rates and Financial Markets" 310; Jeanne, O. and Masson, P. R. 2001. "A New Monetary System for Europe". 160; Jan Tirole 2006. "Market Failures and the Role of Central Banks" 250; Jagdish Bhagwati 2004. In Defense of Globalization. 290; Williamson, J. 1983. "The Exchange Rate System: A Comparative Study" 220. Eugene Fama. 1970. "Efficient Capital Markets: A Review of Theory and Empirical Work" 270; Friedrich Hayek 1944. "The Road to Serfdom" 260; Barry Eichengreen Charles Wyplosz. 1998. "The Economic Consequences of the Euro" 300; Robert Barro 1995. "The Currency Myth". 200.; Michael Mussa. 1986. "The Exchange Rate and Economic Policy". 180.; Oliver Blanchard 2009. "Macroeconomics" (Textbook) 800. Jeffrey Frankel 2003. "Exchange Rate Regimes and International Financial Stability". 220.; Luis Serven. 2009. "The Role of Exchange Rates in Development". 210.

³Волков И.И. Макроэкономический анализ взаимодействия денежно-кредитной и бюджетной политики государства. -М: Креативная экономика, 2017. 264; A. Kabekin. "Monetary Policy and Economic Stability in Russia" 2020. 260; Vladimir Mau. "Economic Reforms in Post-Soviet Russia" 2006. 320; S. Glazyev. "Globalization, the Economy, and Exchange Rate Systems". 2008. 300; V. Tikhomirov. "Financial Integration and Exchange Rate Mechanisms". 2011. 240; А.Л. Кудрин "Экономическое развитие России. Том 1" Министры финансов России. 2020. 472ст, F. Khabibullina. "Kazakhstan's Exchange Rate Policy and Its Impact on Economy". 2014. 270; A.

O‘zbekistonda valyuta kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanishining nazariy asoslari borasidagi ayrim masalalar S.S.Gulyamov, Sh.Sh.Shodmonov, N.X.Jumayev, N.M.Maxmudov, B.B.Berkinov, T.S.Rasulov, S.K.Xudoyqulov, Z.A.Djumayev, T.I.Boboqulov, Z.U.Berdinazarov, Sh.Rajabbayev, H.A.Hakimov, Sh.I.Mustafakulov, A.Abdullayev, Sh.Tursunov, R.Tulyaganov, F.Zokirov, A.Tashmanov, S.Tillayev, S.X.Jumayeva, E.A.Xoshimov, S.A.Axmedjanov va boshqa olimlar⁴ning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlari muhim ilmiy-nazariy manbalar hisoblanadi. Ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasida valyuta kursining shakllanishi va uning iqtisodiyotga ta’siri nafaqat mahalliy, balki xalqaro darajadagi muhim tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Mahalliy va xorijiy tajribalarni o‘zar solishtirish va ular asosida valyuta siyosatini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, xususan inflyatsiya, savdo balansi va tashqi qarzning valyuta kursiga ta’sirini chuqurroq tahlil qilish siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti indikatorlari asosida “Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi”dagi o‘rnini baholashning O‘zbekiston uchun “milliy modeli”ni ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Musinov. “Monetary Policy and Exchange Rate Dynamics in Kazakhstan”. 2017. 190; S. Ulatov. “Currency Exchange Rate Mechanisms in Post-Soviet Economies”. 2014. 220; A. Klepach. “The Role of Exchange Rates in Russia’s Economic Transition” 2011. 220; Татьяна Заславская. “Курсы обмена и денежно-кредитная политика в переходный период России”. 2013. 200; V. Polterovich. “Exchange Rate Policy and Financial Stability”. 2005. 250; K. Gennadiy. “Monetary Policy and Exchange Rate Fluctuations in Post-Soviet Economies” 2017. 180.

⁴ Гулямов С.С. Основные направления модернизации банковской системы Республики Узбекистан. //Российское предпринимательство. 2000. Т. 1, № 9. С. 87-95; Sh. Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. 2017. 727-757 b.; Jumayev N.X. O‘zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish. Monografiya. Toshkent: Fan va texnologiya, 2007; Maxmudov N. Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sishni ta’minalashda pul-kredit siyosatining rolini oshirish yo‘llari. //Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.: TDIU. 2015-yil, 23-29 b.; Berkinov B. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minalash yo‘llari. Monografiya. T.: TDIU, 2011; T. S. Rasulov. Valyuta munosabatlarining nazariy asoslari. T.: “Moliya”, 2007 y. 316 b.; Xudoyqulov S.K. “Modeling the impact of the quality of the political and economic environment on population migration”. “ICFNDS ‘23: The International Conference on Future Networks and Distributed Systems” xalqaro jurnalni. 139-156b.; Djumayev Z.A. Makroiqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Innovatsion rivojlanish” nashriyot-matbaa uyi, 2018. 300 bet.; T. Boboqulov “Milliy valyutaning barqarorligini ta’minalash: muammolar va yechimlar” Monografiya. T.: “Fan va texnologiya” 2007y. 184b. Mustafakulov Sh.I. Makroiqtisodiyot. Darslik. -T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022 260 b.; Z.U. Berdinazarov. Valyuta siyosati metodologiyasini takomillashtirishning nazariy amaliy asoslari (Monografiya) 2018. 254 bet., Sh.Rajabbayev. O‘zbekiston valyuta siyosatining xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ta’siri. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Qo‘lyozma huquqida (UDK 336.743.(575.1)). Toshkent, 2008 y. 20b.; H.A. Hakimov. Makroiqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirishning moliyaviy mexanizmlari: nazariya va amaliyot. (Monografiya). –T.: Ilm-fan va innovatsiya/ 2024. 53-56.160; A. Abdullayev “Valyuta kursi va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik”. 2015. 220b; Sh. Tursunov. “O‘zbekistonning valyuta siyosati va global integratsiya” 2018. 220b; R. Tulyaganov. “Valyuta kursining shakllanishi va savdo balansi” 2012. 190b.; F. Zokirov. “Valyuta kursining o‘zgarishi va iqtisodiy o‘sish”. 2013. 210b.; A.Tashmanov. “O‘zbekiston iqtisodiyotida valyuta kursi va inflyatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik”. 2015. 230b.; S.Tillayev. “Valyuta kursining shakllanishi va iqtisodiy siyosat”. 2020. 220b., S.X. Jumayeva “To‘lov balansini tartibga solish da valyuta kursi siyosatining rolini oshirish yo‘llari” (Avtoreferat) 2022., E.A.Xoshimov “Raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekiston Respublikasi valyuta siyosatini takomillashtirishning metodologik jihatlari”(Avtoreferat) 2022., S.A.Axmedjanov “Xalqaro valyuta bozoridagi almashuv kursi dinamikasining milliy iqtisodiyotga ta’siri” (Avtoreferat) 2024y.

Tadqiqotning maqsadi. Valyuta kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanishining nazariy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

valyuta kursining shakllanishi bo‘yicha ilmiy-nazariy yondashuvlarni tahlil qilish;

valyuta kursining turlari hamda unga ta’sir etuvchi omillarni ilmiy-nazariy asoslash;

O‘zbekistonda valyuta kursini shakllantirishdagi asosiy mexanizmlarni tahlil qilish;

O‘zbekistonda valyuta kursi shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlilini qilish;

Valyuta kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanishining xalqaro tajribasi va undan O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlarini belgilab chiqish;

O‘zbekistonda valyuta kursini shakllanish holati va valyuta kursining bozor mexanizmlari orqali shakllanish yo‘nalishlarini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib O‘zbekiston Respublikasida bozor mexanizmlari orqali valyuta kursini boshqarish strategiyasi, siyosati va amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liq faoliyat sohalari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti valyuta kursini bozor mexanizmlari asosida shakllanish jarayonidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, shuningdek, tarkibiy va qiyosiy tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, statistik prognozlash, empirik va ekonometrik tahlil, korrelyatsion va regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko‘ra “valyuta kursining bozor mexanizmlari” tushunchasining iqtisodiy mazmuni valyuta kursining shakllanishida bozor ishtirokchilari (markaziy va tijorat banklari, investorlar)ning xatti-harakatlarida axborot asimmetriyasi, bozor psixologiyasi va axborot oqimlari sifatining ta’siri nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

valyuta bozorining likvidligini oshirish va devalvatsiya bosimini yumshatishga xizmat qiladigan valyuta birjasidagi banklararo savdolarni optimallashtirish mexanizmi tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va kursning shaffof shakllanishini ta’minalash orqali takomillashtirilgan;

bozor mexanizmlarining murakkab tabiatini nazariy jihatdan yoritadigan talab va taklifning qisqa muddatli o‘zgarishlari, makroiqtisodiy omillar (foiz stavkalari, inflyatsiya, tashqi savdo balansi) va bozor ishtirokchilarining xatti-harakatlarini hisobga oluvchi dinamik muvozanat modeli valyuta kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanishini real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini yaratish jihatidan takomillashtirilgan;

O‘zbekistonda valyuta kursiga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi ekonometrik modellar asosida milliy valyuta so‘mning AQSh dollariga nisbatan almashinuv kursi dinamikasining 2030-yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish, milliy valyutani barqarorligiga erishish choralarini ko‘rish, shuningdek, bank tizimini barqarorligini ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

mas’ul organlar o‘rtasida doimiy ma’lumot almashish va valyuta siyosati choralarni birgalikda ishlab chiqish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

liberallashtirilgan valyutaning mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlik va o‘sishga ta’siri ko‘rib chiqilgan;

amaldagi valyuta rejimini takomillashtirish va milliy valyuta kursini barqarorlashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijasida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi ishda qo‘llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlil natijalarining iqtisodiy-matematik usullar vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o‘tkazilganligi hamda olingan natijalarning yuqori tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati valyuta kursini bozor mexanizmlari asosida shakllanishining nazariy asoslarini takomillashtirish maqsadlariga mos ravishda xizmat qilishi, O‘zbekistonning valyuta kursi shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy iqtisodiy, ijtimoiy va moliyaviy ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda tahlil qilishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki hamda O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasi tomonidan valyuta kursini bozor mexanizmlari asosida shakllanishini ta’minlash yuzasidan qabul qilinayotgan qarorlar, dasturlar va chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishda, shuningdek, tadqiqot natijalaridan “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Makroiqtisodiyot”, “O‘rta makroiqtisodiyot” fanlari bo‘yicha darslik, o‘quv dasturlari va uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Valyuta kursini bozor mexanizmlari asosida shakllanishining nazariy asoslarini takomillashirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko‘ra “valyuta kursining bozor mexanizmlari” tushunchasining iqtisodiy mazmuni valyuta kursining shakllanishida bozor ishtirokchilari (markaziy va tijorat banklari, investorlar)ning xatti-harakatlarida axborot asimmetriyasi, bozor psixologiyasi va axborot oqimlari sifatining ta’siri nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliv ta’limning 70310103–Makroiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi talabalari uchun tavsiya etilgan “O‘rta makroiqtisodiyot” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2025-yil 11-martdagi 97-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy natijalardan o‘quv

adabiyotlarida foydalanish talabalarda valyuta kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanishi mohiyatini to‘g‘ri va kengroq tushunishlariga imkon yaratgan;

valyuta bozorining likvidligini oshirish va devalvatsiya bosimini yumshatishga xizmat qiladigan valyuta birjasidagi banklararo savdolarni optimallashtirish mexanizmi tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va kursning shaffof shakllanishini ta‘minlash orqali takomillashtirish taklifidan AT “Aloqabank” faoliyatida foydalanilgan (Aksiyadorlik tijorat “Aloqabank”ining 2025-yil 26-iyundagi 05-04/2913-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ichki valyuta bozorida tijorat banking milliy valyuta kursi shakllanishidagi faolligini oshirish maqsadida bozor tamoyillariga muvofiq market-meykerlik faoliyati joriy etilgan;

bozor mexanizmlarining murakkab tabiatini nazariy jihatdan yoritadigan talab va taklifning qisqa muddatli o‘zgarishlari, makroiqtisodiy omillar (foiz stavkalari, inflyatsiya, tashqi savdo balansi) va bozor ishtirokchilarining xatti-harakatlarini hisobga oluvchi dinamik muvozanat modeli valyuta kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanishini real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini yaratish jihatidan takomillashtirish taklifidan AT “Aloqabank” faoliyatida foydalanilgan (Aksiyadorlik tijorat “Aloqabank”ining 2025-yil 26-iyundagi 05-04/2913-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ichki valyuta bozorida likvidlilik provayderi hisoblangan tijorat banki tomonidan valyuta oldisotdi operatsiyalari bo‘yicha defolt holati yuzaga kelganda qo‘llaniladigan riskni boshqarish mexanizmlari ko‘lami kengaytirilib, valyuta bozoridagi defolt menejmenti tizimi takomillashtirilgan;

O‘zbekistonda valyuta kursiga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi ekonometrik modellar asosida milliy valyuta so‘mning AQSh dollariga nisbatan almashinuv kursi dinamikasining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz parametrlaridan AT “Aloqabank”ining “2025-yilga mo‘ljallangan biznes-rejasi”ni tayyorlashda foydalanilgan (Aksiyadorlik tijorat “Aloqabank”ining 2025-yil 26-iyundagi 05-04/2913-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi natijasida xorijiy valyutalarda nufuzli xorijiy banklarda vakillik hisobraqamlarini ochish hamda Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan texnik maslahatlashuvlar asosida kunlik valyuta ayrboshlash kurslarini belgilashga o‘zgartirishlar kiritish rejalashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan e’tirof etilgan jurnallarda 5 ta maqola (jumladan, 2 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda), 5 ta ma’ruza tezislari konferensiya materiallari to‘plamlarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Mazkur dissertatsiya tarkibi 3 ta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya ishining umumiy hajmi 143 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti, predmeti ifodalangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishning sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Valyuta kursi shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlangan bиринчи bobida valyuta kursining shakllanishi bo‘yicha ilmiy-nazariy yondashuvlar, valyuta kursining turlari va shakllanish usullari va shuningdek, uning shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar bayon etilgan. Valyuta kursi dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi savdo, iqtisodiyot va moliya sohalariga ta’sir ko‘rsatadigan muhim makroiqtisodiy omillardan biridir. Shu sababli, valyuta kursining ta’rifi va unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta’minlashda alohida ahamiyatga ega.

Valyuta kursining o‘zgaruvchanligi makroiqtisodiy barqarorlikka, ayniqsa inflyatsiya va to‘lov balansiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Kurs pasayganda import narxlari oshib, ichki bozorda inflyatsiya kuchayadi. Eksport hajmidagi o‘zgarishlar esa to‘lov balansining holatiga ta’sir qiladi. Shu sababli, valyuta kursining barqarorligi iqtisodiy siyosatda muhim o‘rin egallaydi. Hukumat bu borada kurs tebranishlarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur.

Jahon banki mamlakatlarni daromad darajasi bo‘yicha to‘rt guruhga ajratadi. 2023-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistonning yalpi ichki mahsuloti 90,89 milliard AQSh dollarini tashkil etib, uni past-o‘rta daromadli davlatlar qatoriga kiritgan. Biroq bu ko‘rsatkich mamlakatning to‘liq iqtisodiy salohiyatini aks ettirmaydi, chunki iqtisodiy rivojlanish ko‘plab tashqi omillar, jumladan, savdo aloqalari va valyuta oqimlariga bog‘liqdir.

O‘zbekistonga xorijiy valyuta asosan eksport, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar, mehnat migrantlarining pul o‘tkazmalari hamda xalqaro moliyaviy operatsiyalar orqali kirib keladi. Bu manbalar valyuta kursi barqarorligi va to‘lov balansini muvozanatda saqlashda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi 1-jadvalda valyuta kursining shakllanishi bo‘yicha asosiy iqtisodiy nazariyalar va ularning evolyutsiyasini ko‘rishingiz mumkin. Ushbu jadvalda aks ettirilgan nazariyalar iqtisodiyotning turli davrlarida valyuta kurslari qanday shakllanishini tushuntirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu nazariy yondashuvlar bugungi global iqtisodiyotning ishslash tamoyillarini anglashda haligacha dolzarb bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston iqtisodiy siyosatida xorijiy valyuta oqimlarini diversifikatsiya qilish va xorijiy investitsiyalarni jalg etish muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi. Bu holat milliy valyutaning qadrsizlanish xavfini kamaytirib, mamlakatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

1-jadvalda valyuta kursining shakllanishi bo‘yicha turli nazariy yondashuvlarni, ularning asoschilari va iqtisodiy g‘oyalari aks ettirilgan.

1-jadval

Valyuta kursi va uning shakllanishi bo‘yicha nazariy yondashuvlar evolyutsiyasi⁵

Nazariya hamda yondashuv	Asoschisi	Asosiy g‘oya	Davr
Mutloq ustunlik nazariyasi	Adam Smit	Mamlakatlar o‘zlarining mutlaq ustunlikka ega bo‘lgan tovarlarini ishlab chiqarishi va eksport qilishlari kerak	1770-80-yillar
Nisbiy ustunlik nazariyasi	David Rikardo	Mamlakatlar nisbatan samarali ishlab chiqarishga ega bo‘lgan mahsulotlar bo‘yicha ixtisoslashishi lozim	1810-20-yillar
Xarid qobiliyati pariteti nazariyasi (PPP)	Gustav Kassel	Valyuta kurslari uzoq muddatda ikki mamlakatdagi inflyatsiya farqlari asosida shakllanadi	1920-30-yillar
Monetar yondashuv	Milton Fridman	Pul massasi va monetar siyosat valyuta kursining asosiy shakllanuvchi omillaridan biridir	1950-60-yillar
Keynschilik yondashuvi	John Maynard Keyns	Davlat iqtisodiyotga aralashib, valyuta kursini tartibga solish orqali iqtisodiy barqarorlikni saqlashi kerak	1930-40-yillar
Optimum valyuta hududi nazariyasi	Robert Mundell	Barcha iqtisodiyotlar uchun yagona valyuta hududi optimal shaklda bo‘lishi kerak	1960-70-yillar
O‘zgaruvchan valyuta kurslari nazariyasi	Rudiger Dornbusch	Valyuta kurslari qisqa muddatda bozor ishtirokchilari kutilmalari va foiz stavkalari o‘zgarishlariga bog‘liq	1970-80-yillar
	Paul Krugman	Valyuta kurslari talab va taklif asosida shakllanib, bozordagi muvozanatni aks ettiradi	1990-yillar

Valyuta kursini tartibga solish jarayoni rasmiy va norasmiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Rasmiy mexanizmlar davlat va markaziy bank tomonidan olib boriladigan siyosat choralari va intervensiyalarni o‘z ichiga olsa, norasmiy mexanizmlar bozorning talab va taklif kuchlariga asoslanadi. Bu tartibga solish vositalari milliy valyutaning barqarorligini ta’minalash va tashqi omillarning ta’sirini yumshatishda muhim rol o‘ynaydi.


Umuman olganda, valyuta kursini boshqarish davlatning iqtisodiy siyosatidagi asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu jarayon iqtisodiy o‘sish va barqarorlikka erishishda markaziy bank siyosati va xalqaro moliyaviy oqimlarni tartibga soluvchi mexanizmlarga tayangan holda amalga oshiriladi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida valyuta kursining shakllanishi bir qancha makroiqtisodiy omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning har biri valyuta kursining o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Valyuta kursining asosiy 4 ta turga ajratish mumkin, ular xalqaro iqtisodiy munosabatlarda muhim o‘rin tutadi. Xususan, qat’iy valyuta kursi (fixed exchange rate) davlat tomonidan qat’iy belgilangan va deyarli o‘zarmas darajada saqlanadigan kursni anglatadi. Suzuvchi valyuta kursi (floating exchange rate) esa bozor mexanizmlari, ya’ni talab va taklif asosida shakllanadi. Qattiq bog‘langan

⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

kurs (pegged exchange rate) boshqa bir kuchli valyutaga nisbatan ma'lum diapazonda saqlanadi va shu asosda tartibga solinadi. Boshqariladigan suzuvchi kurs (managed floating) esa markaziy bank yoki hukumatning bevosita intervensiyalari orqali bozor mexanizmlariga aralashuvi bilan shakllanadi. Mazkur kurs turlari iqtisodiy barqarorlik, inflyatsiya nazorati hamda tashqi savdo raqobatbardoshligini ta'minlashda turlicha strategik ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Valyuta kursining shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar⁶

Valyuta kursiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillar — inflyatsiya, foiz stavkalari, tashqi savdo balansi, tashqi qarz, siyosiy barqarorlik, Markaziy bank siyosati, xalqaro pul o'tkazmalari va global iqtisodiy shoklardir. Bu omillar nafaqat valyuta kursining shakllanishiga, balki mamlakatning iqtisodiy barqarorligiga va xalqaro iqtisodiy integratsiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston bo'yicha o'tkazilgan empirik tadqiqotlarda, masalan professor Z.Berdinazarov va boshqalar foiz stavkasi va valyuta kursi o'rtasida salbiy, ammo statistik jihatdan ahamiyatsiz bog'liqlik mavjudligini aniqlagan. Bu boshqa omillar ta'sirida foiz stavkasining rolini pasaytirayotganini anglatadi.

Professor T. Boboqulov valyuta kursi siyosatining nazariy asoslarini va milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini o'rgangan. Professor N.Jumayev esa valyuta munosabatlarini tartibga solish metodologiyasini chuqur tahlil qilgan. Professor T.Rasulov valyuta munosabatlarining nazariy va uslubiy asoslariga e'tibor qaratgan, dotsent E.Xoshimov esa valyuta bozorini erkinlashtirish masalalarini yoritgan. M. Isaevaning tadqiqotlariga ko'ra, xalqaro pul o'tkazmalari moliya tizimiga bevosita emas, balki jamg'arma va investitsiyalar orqali bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu o'tkazmalar aholining daromadini oshirib, iqtisodiy o'sish uchun qo'shimcha resurs yaratadi.

Umuman olganda, rivojlanayotgan mamlakatlarda valyuta kursini tartibga solish ko'proq davlat aralashuvi asosida amalga oshiriladi, bu chayqovchilikni cheklash va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Rivojlangan davlatlarda esa erkin bozor mexanizmlari ustuvor bo'lib, talab va taklif asosida valyuta kursi shakllanadi.

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu tahlillar asosida “Valyuta kursining bozor mexanizmlari” – bu erkin talab va taklif asosida, ichki va tashqi iqtisodiy omillarning o’zaro ta’siri orqali shakllanadigan, milliy valyutaning boshqa valyutalarga nisbatan qadr-qimmatini aniqlash jarayonida moliya bozoridagi institutsional vositalar, ishtirokchilar kutishlari, bozor psixologiyasi, axborot asimmetriyasi va makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlovchi turli instrumentlar orqali valyuta qiymatini belgilashni nazarda tutuvchi iqtisodiy munosabatlar tizimi deb e’tirof etish mumkin.

Valyuta bozorida axborotning notekis taqsimlanishi (asimmetriyasi) tufayli ayrim ishtirokchilar boshqalarga qaraganda ko’proq ma’lumotga ega bo’ladi. Natijada, ayrim treyderlar yoki institutlar ichki maxfiy axborotga tayangan holda ustunlikka ega bo’lishi, boshqalar esa cheklangan ma’lumot sababli noto‘g’ri qarashlarga tayanishi mumkin.

Axborot asimmetriyasi sharoitida turli agentlar valyuta kursini har xil talqin qilib, qarorlar qabul qilgani bois kurs fundamental qiymatdan vaqtincha og‘ishi, volatillik ortishi va “overshooting” (haddan tashqari tebranish) hodisalari kuzatilishi mumkin. Bozor psixologiyasini inobatga olgan holda Markaziy bank hamda banklar valyuta bozorida ishtirokchilarga to‘g’ri signal yuborishga va noto‘g’ri tushunchalarini bartaraf etishga harakat qiladi.

Dissertatsiyaning “**O‘zbekistonda valyuta kursining shakllanish amaliyoti tahlili**” nomli ikkinchi bobida O‘zbekistonda valyuta kursini shakllantirishdagi asosiy mexanizmlar tahlili, valyuta kursining o‘zgarishiga sabab bo‘layotgan omillar tahlili, shuningdek, O‘zbekistonda valyuta kursi shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili to‘g’risida tahliliy fikrlar yuritilgan.

2-jadval


O‘zbekistonda valyuta kursining shakllantirilishidagi davrlar tahlili⁷

Davr	Valyuta kursi mexanizmi	Valyuta kursi siyosati	Xususiyatlari
1991-1995	Qat’iy valyuta kursi (Pegged Exchange Rate)	Markaziy bank tomonidan valyuta kursining qat’iy nazorati	Valyuta kursi bozor talabiga moslashmasdan, markaziy bank tomonidan belgilanadi. Barqarorlik yuqori, lekin bozor mexanizmlariga ta’sir cheklangan
1996-2005	Qattiq bog’langan kurs va markaziy bankning aralashuvi	Markaziy bankning cheklovlarini va narx belgilash siyosati	Valyuta kursi boshqariladigan, lekin cheklovlar mavjud. Eksportni rag’batlantirishga qaratilgan siyosat, lekin raqobatni kamaytiradi
2006-2016	Boshqariladigan suzuvchi valyuta kursi (Managed Floating)	Markaziy bankning bozorga aralashuvi va kapital oqimlarini boshqarish	Bozor mexanizmlariga asoslangan, lekin markaziy bank aralashuvlari ham mavjud. Bozor bilan integratsiya, lekin inflyatsiya bosimi ortadi
2017-h.v.	Erkin suzuvchi valyuta kursi, liberallashtirish va bozor mexanizmlari	Minimal aralashuv, bozor talabiga moslashish	Valyuta kursi bozor talabiga moslashadi, markaziy bank minimal aralashadi. Valyuta kursi barqarorligi oshadi, lekin ko’proq volatillik kuzatiladi

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, O'zbekistonda valyuta kursi shakllanishi turli bosqichlarni bosib o'tgan. Dastlab qat'iy nazorat ostidagi kurs tizimi amal qilgan bo'lib, Markaziy bank tomonidan belgilangan kurslar eksportni rag'batlantirgan bo'lsa-da, bozor mexanizmlarining roli cheklangan edi. Keyinchalik bozorga qisman aralashuv asosida suzuvchi kurs tizimiga o'tildi, bu esa bozor mexanizmlariga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirishga yo'l ochdi. Shu bilan birga, inflyatsiya bosimi ham ortdi. Prezidentning 2017-yil 2-sentabrda qabul qilingan PF-5177-sonli "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" farmoni bilan valyuta bozorini liberallashtirish bosqichi boshlandi. Valyuta kursi bozor tamoyillari asosida shakllana boshladi, jismoniy va yuridik shaxslarga erkin valyuta ayirkoshlash imkoniyati yaratildi. Norasmiy bozor yo'q qilinib, rasmiy bozor mustahkamlandi, bu esa xalqaro savdo va investitsiyalarga qulay sharoit yaratdi. Markaziy bank endilikda valyuta kursini ma'muriy belgilashdan voz kechib, banklararo birja orqali kursni shakllantirishga o'tdi. Buning natijasida milliy valyuta 92,4 foizga qadrsizlandi, bu qisqa muddatda inflyatsiyani oshirdi. Biroq uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy barqarorlik va o'sish uchun asos yaratildi.

Valyuta kursiga tashqi savdo katta ta'sir ko'rsatadi. Eksport importdan yuqori bo'lsa, xorijiy valyuta oqimi ortib, milliy valyuta kursi mustahkamlanadi. Aksincha holatda esa, milliy valyuta kursi qadrsizlanadi. Shu jihatdan, 2017-yilgi islohot iqtisodiyotning bozor tamoyillariga asoslangan rivojlanishi va xalqaro integratsiyasida muhim burilish bo'ldi. Islohotlarning izchil davom ettirilishi esa barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.




2-rasm. 2015–2024-yillar uchun so'mning devalvatsiyasi (foizlarda o'zgarishi)⁸

2-rasmida 2015–2024-yillar oralig'ida O'zbekistonda valyuta kursining dinamikasi aks ettirilgan bo'lib, unda 2017-yilda keskin o'sish yaqqol ko'zga

⁸ Xalqaro valyuta fondi (XVF) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

tashlanadi. Bu holat mamlakatda valyuta bozorini liberallashtirishga oid islohotlar, natijasida so‘mning erkin suzuvchi kurs tizimiga o‘tishi bilan bog‘liq. Keyingi yillarda kurs asta-sekinlik bilan o‘sishda davom etgan, bu esa valyuta kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanishi, tashqi savdo muvozanati, inflyatsiya bosimi va global iqtisodiy omillar ta’siri ostida rivojlanganligini ko‘rsatadi. Grafikdagi doimiy va bosqichli o‘sishlar markaziy bank siyosatidagi o‘zgarishlar va iqtisodiyotning tashqi sharoitlarga moslashuv jarayonini ifodalaydi.

Dollarlashuv valyuta kursiga ta’sir etuvchi yana bir muhim omil sifatida e’tiborga olinadi. Dollarlashuv — bu milliy iqtisodiyotda xorijiy valyutadan, asosan AQSh dollaridan, ichki hisob-kitoblar, jamg‘arma va kreditlash jarayonlarida keng foydalanish jarayonidir. U chet el valyutasining milliy pul massasiga yoki pul massasiga (M2) nisbati sifatida hisoblanadi. 3-rasmda O‘zbekistonda 2013–2024-yillar davomida dollarlashuv darajasi ko‘rsatilgan bo‘lib, bu davrda dollarizatsiyaning o‘zgarishini tahlil qilish mumkin.



3-rasm. O‘zbekistonda 2013–2024-yillardagi dollarlashuv⁹


3-rasmdan ko‘rish mumkinki, O‘zbekistonda 2013–2016-yillarda dollarlashuv darajasi bosqichma-bosqich pasayib, 15 foiz atrofida eng past ko‘rsatkichga yetganligi, 2017-yildan boshlab esa iqtisodiy islohotlar va milliy valyutaning erkinlashtirilishi natijasida dollarlashuv keskin oshib, 2018-yil boshlarida 35 foizdan yuqori cho‘qqiga chiqqan. Keyingi yillarda (2018–2021) dollarlashuv yuqori darajada, ya’ni 30 foiz atrofida barqarorlikni saqlagan. 2022-yildan esa pasayish tendensiyasi kuzatilib, 2024-yilga kelib dollarlashuv 20 foizdan pastroq darajaga qaytgan. Bu jarayon mamlakatda milliy valyutaga bo‘lgan ishonchning ortishi, makroiqtisodiy barqarorlikning kuchayishi hamda moliya bozorida mahalliy instrumentlarning rivojlanishi bilan izohlanadi.

Valyuta kursi va inflyatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiy siyosat uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, aholining xarid qobiliyatiga va iqtisodiyotning umumiy barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi. Shu nuqtayi nazardan, valyuta

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

siyosatini boshqarishda devalvatsiya va inflyatsiya o‘rtasidagi nozik muvozanatni saqlash zarur.

Xalqaro pul o‘tkazmalari O‘zbekiston aholisining daromadlarida muhim o‘rin tutadi va yalpi talabni shakllantirish orqali milliy valyutaning qadrlanishiga yordam beradi. Biroq bu jarayon inflyatsion bosimni kuchaytirishi mumkin. 2015-yilda Rossiyadagi inqiroz, 2020-yilda esa pandemiya tufayli pul o‘tkazmalari sezilarli kamayib, milliy valyuta kursiga va iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Pul o‘tkazmalari hajmidagi pasayish ichki pul massasining qisqarishi va valyuta bozoridagi beqarorlikni kuchaytirdi. Shu sababli, bu oqimlar valyuta siyosatining muvozanatini saqlashda muhim ahamiyatga ega. 2013–2017-yillarda dollarlashtirish darajasi past bo‘lgan bo‘lsa-da, 2018-yilda valyuta liberallashuvi ortidan bu ko‘rsatkich keskin oshdi. Inflyatsiya yuqori bo‘lgan sharoitda aholining AQSh dollariga bo‘lgan talabining ortishi dollarlashuvni kuchaytirdi. Bu holat bank tizimining xorijiy valyutalarga qaramligini oshirib, milliy valyutaga bo‘lgan ishonchni pasaytirdi.




4-rasm. O‘zbekiston Respublika valyuta birjasida chet el valyutalari savdolari hajmi (AQSh dollarida)¹⁰

4-rasmdan ko‘rish mumkinki, 2020–2024-yillar davomida O‘zbekiston valyuta bozorida sotib olingan va sotilgan valyuta hajmlarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. 2021-yilda har ikki ko‘rsatkich keskin kamaygan bo‘lib, bu COVID-19 pandemiyasining iqtisodiy oqibatlari va inqiroz bilan bog‘liq holat. Keyingi yillarda ayniqsa 2022–2023-yillarda, valyuta operatsiyalari hajmi barqaror o‘sib, 2023-yilda maksimal darajaga yetgan. 2024-yilda esa sotib olingan valyuta biroz kamayganiga qaramay, sotilgan valyuta hajmining o‘sishi bozor faolligining saqlanayotganini ko‘rsatmoqda. Umuman olganda, valyuta bozoridagi bu dinamikalar mamlakatning tashqi savdo faolligi, investitsiya oqimlari va makroiqtisodiy siyosat bilan bevosita bog‘liq. Mazkur tendensiyalar valyuta siyosatining barqarorligini ta’minlash, valyuta oqimlarini tartibga solish va milliy valyuta kursining dinamikasini chuqr tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Valyuta kursining shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tizimli ravishda tasniflash mumkin. Valyuta kursi belgilash turlariga ko'ra (suzuvchi va aniqlanadigan), hisoblash usullariga ko'ra (paritet va haqiqiy kurslar), nisbati bo'yicha (kross kurs, to'g'ri va egri), bitim turlariga ko'ra (spot, forward, future), o'rnatalish joyiga ko'ra (markaziy yoki tijorat banklari), valyutaning xarid qobiliyati paritetiga nisbatan (paritetli yoki kamaytirilgan), bitim qatnashchilari uchun (sotib olish, sotish, o'rtacha kurs) hamda infliyatsiyani hisobga olish usullariga ko'ra (real va nominal kurslar) tasniflanadi. Ushbu mezonlar orqali valyuta kursining shakllanishi nafaqat texnik, balki iqtisodiy va institutsional omillarning uyg'unlashuvi natijasi ekanligi ko'rsatilmoqda.

5-rasmda tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va kursning shaffof shakllanishini ta'minlash orqali valyuta bozorining likvidliligin oshirish va devalvatsiya bosimini yumshatishga xizmat qiladigan valyuta birjasidagi banklararo savdolarni optimallashtirish mexanizmi taklif etilgan.



5-rasm. Valyuta birjasidagi banklararo savdolarni optimallashtirish mexanizmi¹¹

Tranzaksiya xarajatlarining kamaytirilishi valyuta bozorida likvidlikni oshirib, shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekistonda banklararo valyuta savdolari uchun yagona elektron platforma joriy etilishi va rasmiy hamda norasmiy kurslarning uyg'unlashuvi axborot asimmetriyasini kamaytirdi. Valyuta birjasining markazlashuvi ishtirokchilar o'rtasida teng axborot almashinushi va Markaziy bankka ishonchni kuchaytiradi. Ayni paytda savdo balansi taqchilligi,

¹¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

inflyatsiyaning yuqoriligi, moliyaviy bozorlarning rivojlanmaganligi, xususan, kapital bozorining zaifligi valyuta rejimining samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Tranzaksiya xarajatlarining qisqarishi banklar o'rtasidagi spredlarni kamaytirib, likvidlikni oshiradi, bu esa valyuta kursining bozor mexanizmlari asosida barqaror shakllanishiga xizmat qiladi. Markaziy bank bu jarayonda nazoratchi va tartibga soluvchi sifatida ishtirok etib, bozor infratuzilmasini rivojlantirish choralarini ko'rishi lozim.

Uchinchi bob "**Valyuta kursi shakllanishining bozor mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari**" deb nomlanib, unda valyuta kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanishining xalqaro tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari, valyuta kursining bozor mexanizmlari orqali shakllanish yo'nalishlari, O'zbekistonda valyuta kursini shakllanish holati prognozlarini yoritib berilgan.

O'zbekiston valyuta kursining shakllanishida bozor mexanizmlariga asoslangan yondashuvni rivojlantirishda xalqaro tajribadan samarali foydalanishi mumkin. Rossiya tajribasi, xususan, 2014-yildan boshlab suzuvchi kursga o'tishi va valyuta intervensiyanining kamaytirilishi energetika eksportiga tayangan iqtisodiyotlar uchun dolzARB bo'lib, bu O'zbekiston uchun inflayatsion xavflarni yumshoq boshqarishda foydali bo'lishi mumkin. Biroq, tashqi bozorga yuqori darajadagi qaramlik kurs tebranishlariga olib kelishi mumkin. Qozog'iston tajribasi valyuta kursining erkinlashuvi va dollarizatsiyaning pasaytirilishi orqali milliy valyutani barqarorlashtirishga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston uchun bosqichma-bosqich suzuvchi kursga o'tishda model bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, kursdagi keskin o'zgarishlar aholining ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Turkiya tajribasi markaziy bank mustaqilligining muhimligini ko'rsatadi. Pul-kredit siyosatining siyosiy aralashuvsiz yuritilishi kurs barqarorligining muhim omili hisoblanadi. Aks holda, yuqori inflayatsiya va valyuta beqarorligi yuzaga keladi. Janubiy Koreya valyuta kursining barqarorligini eksportning diversifikatsiyasi orqali ta'minlab, texnologik mahsulotlar eksportiga urg'u beradi. Bu tajriba O'zbekiston uchun uzoq muddatda eksport tarkibini kengaytirish orqali milliy valyutani mustahkamlash imkonini beradi.

Singapurda esa valyuta kursi qat'iy tartibga solinib, eksport strategiyasiga bog'langan holda yuritiladi. Markaziy bank faqat keskin siljishlarda intervensiya qiladi. Ushbu model eksportga yo'naltirilgan va tartibli moliyaviy boshqaruvga ega iqtisodiyotlar uchun mos, ammo O'zbekiston sharoitida to'liq qo'llash uchun hozircha mos emas.

Xalqaro tajribalar asosida O'zbekistonda valyuta kursi siyosatini bosqichma-bosqich liberallashtirish, eksportni rag'batlantirish va pul-kredit siyosatini mustahkamlash orqali iqtisodiy barqarorlikka erishishda yo'l-yo'riq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, har bir modelning o'ziga xos tavakkalchiliklari inobatga olinishi zarur.

O'zbekistonda valyuta kursi va unga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish masalalari tadqiq qilingan. Valyuta kursini belgilash va uni bir

maromda statsionar holatda ushlab turish murakkab masala bo‘lib, unga bir paytda ham ichki, ham tashqi omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim tashqi omillar bevosita emas, balki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham mazkur ta’sirlarni o‘rganish uchun ko‘p omilli ekonometrik model tuzish lozim bo‘ladi. Ko‘p omilli ekonometrik modelda qatnashadigan natijaviy omil bo‘lib, O‘zbekistonda valyuta kursi, so‘m (Y) hisoblanadi. Ushbu omilga ta’sir etuvchi omillar bo‘lib esa – real YAIM, mlrd. so‘m (X1), infliyatsiya darajasi, % (X2), qayta moliyalash stavkasi, % (X3), tashqi savdo balansi, mlrd. so‘m (X4) va oltin-valyuta zaxiralarining o‘zgarishlari, % (X5) hisoblanadi. Ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritilayotgan omillarning o‘lchov birliklari turlicha bo‘lganligi sababli, ularning qiymatlarini logarifmlash orqali yagona o‘lchov birligiga keltiramiz.


3-jadval

Omillar bo‘yicha tavsifiy statistika natijalari¹²

	LNY	LNX1	LNX2	LNX3	LNX4	LNX5
Mean	8.476166	12.74238	10.89867	12.80000	10.05306	1.026667
Median	8.544867	12.66816	10.00000	13.50000	9.901716	1.900000
Maximum	9.466569	14.10219	18.70000	16.00000	12.24453	3.400000
Minimum	7.407196	11.59290	7.340000	9.000000	6.282080	-3.300000
Std. Dev.	0.825508	0.835095	3.133929	2.242448	1.786036	2.012982
Skewness	-0.062969	0.111610	1.162046	-0.405795	-0.475237	-0.901486
Kurtosis	1.238862	1.664286	3.632026	2.054468	2.269580	2.571665
Jarque-Bera	1.948416	1.146225	3.625535	0.970445	0.898072	2.146363
Probability	0.377491	0.563768	0.163202	0.615560	0.638243	0.341919
Sum	127.1425	191.1357	163.4800	192.0000	150.7960	15.40000
SumSq. Dev.	9.540486	9.763375	137.5012	70.40000	44.65895	56.72933
Observations	15	15	15	15	15	15

Jadval ma’lumotlaridan har bir omilning o‘rtacha qiymati (mean), medianasi (median), maksimal va minimal qiymatlari (maximum, minimum) qiymatlarini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari har bir omilning standart chetlanishi (std. dev. (Standart Devation) – standart chetlanish koeffisiyenti har bir o‘zgaruvchilarning o‘rtacha qiymatdan qanchalik chetlanganligini ko‘rsatadi) qiymatlari keltirilgan.

¹² Muallif ishlanmasi.



6-rasm. Omillarning taqsimot zichligi funkiyalari grafiklari¹³

